



YANGILANAYOTGAN YURTIMIZDA TA'LIM TIZIMIGA E'TIBOR.

*Shodiyeva O'g'iloy Otayor qizi Nizomiy nomidagi TDPU magistranti***Annotatsiya**

Mazkur maqolada ta'limning davlat rivojlanishidagi ahamiyatini yoritib bergan holda, yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar to'g'risida fikr yuritiladi. Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimini o'rganib chiqib, yurtimiz ta'lim tizimida qo'llash mumkin bo'lgan jihatlarini ko'rsatishga harakat qildik.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, islohot, innovatsiya, ta'lim tizimi muammolari, pedagog, inovatsion g'oyalar.

Abstract

This article sheds light on the importance of education in the development of the state and reflects on the reforms implemented to develop the education system in our country. After studying the educational system of developed countries, we tried to show the aspects that can be applied in the educational system of our country.

Key words: educational system, reform, innovation, educational system problems, pedagogue, creative ideas.

Абстрактный

Данная статья проливает свет на значение образования в развитии государства и размышляет о реформах, проводимых для развития системы образования в нашей стране. Изучив систему образования развитых стран, мы постарались показать аспекты, которые можно применить в системе образования нашей страны.

Ключевые слова: система образования, реформа, инновации, проблемы системы образования, педагог, творческие идеи.

Ta'lim sohasining eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli



yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz.

Shavkat Miromonovich Mirziyoyev

Har tomonlama rivojlanishni ko'zlagan davlat u xoh ijtimoiy-iqtisodiy, xoh ma'naviy-ma'rifiy va boshqa qanday yo'nalish bo'lishidan qat'iy nazar birinchi navbatda ta'lim tizimiga e'tibor qaratishi lozim. Ta'limning rivojlanishi bu albatta davlatning, jamiyatning rivojlanishidir. Ertangi kunini o'ylagan, yuksalishni ko'zlagan va rivojlangan davlatlar qatorida dunyo sahnasida o'z o'rniga ega bo'lishni istagan har qanday davlat ta'limga rivojlanishning eng asosiy omili sifatida e'tibor qaratadi. Amerikalik muhandis va tadbirkor, Apple korporatiyasi asoschisi, tarixdagi eng muvaffaqiyatli tadbirkor deb tan olingan hamda AQSHning rivojlangan davlatlar qatorida bo'lishiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan Steve Jobsning shunday fikrlari bor: "O'qish, bilim olish insonni oddiy odamlar qatoridan yuqoriroq pog'onaga olib chiqadi". Albatta ilmi insonlar nafaqat o'zlarini balki o'z yurtlarini ham boshqa davlatlar qatoridan yuqoriroq pog'onaga ko'taradilar.

Yurtimizda ta'lim tizimini rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi, ta'lim to'g'risida qonunlar, farmon va farmoyishlar ishlab chiqildi. Hozirgi kunda yurtimiz ta'lim tizimiga nazar solsak, yildan-yilga keskin ko'rsatkichlarda rivojlanib borayotganiga guvoh bo'lishimiz mumkin.

O'zbekistonni 2030-yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning yetakchi davlatlar qatoriga kiritishdek ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan strategik reja e'lon qilindi. Bizning maqsadimiz ilm-fan sohasini zamonaviy iqtisodiyot talablariga moslashtirishdan iborat bo'lib, o'z navbatida, ilm-fandagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy, moliyaviy hamda kadrlar va infratuzilmaga oid islohot-o'zgarishlarni amalga oshirishni ko'zda tutadi.²⁰

3-Renessans jarayoni jamiyat hayotining barcha sohalarini qamrab olgan hozirgi kunda mamlakatimizdagi ta'lim tizimi oldidagi muhim funksiyalardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodga ta'lim-tarbiya berishning yangi va samarali usullarini yaratish, talabalarning bilim darajalariga bo'lgan talabni ko'tarish, o'qitishning rejalashtirilgan natijalariga erishish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

²⁰ Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashri.-Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.



konsepsiyasi ta'lim tizimida talabalarning tabiiy yo'nalishdagi o'quv modullardan savodxonlik darajasini baholashning milliy tizimini yaratish, ta'lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini tatbiq etish, davlat ta'lim standartlariga ko'zda tutilgan kompetensiyalarni baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi dolzarb funksiyalarni ilgari surgan.²¹

Har yili O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetining salmoqli qismi ijtimoiy xarajatlarga, shu jumladan, ta'lim va ilm-fanga sarflanadi. 2021-yilda mamlakat budjetidan faqat innovatsion rivojlanish va novatorlik g'oyalarini qo'llab-quvvatlash, ob'yektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun 239 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. 2022-yilda bu ko'rsatkich 671 milliard so'mdan ortiqni yoki davlat budjeti xarajatlarining 0,39 foizini tashkil etadi.

O'tgan to'rt yil davomida 28 ta ilmiy tashkilot va 4 ta innovatsion texnopark tashkil etildi. Olimlarning maoshlari uch baravarga ko'paydi. Soha tashkilotlarining moddiy-texnik bazasini yangilashga katta mablag'lar sarflandi. Davlat ilmiy-tadqiqot siyosatining muhim ishtirokchisi sifatida 28 ta ilmiy-tadqiqot muassasasi va 4ta davlat muzeyini o'z ichiga olgan O'zbekiston Fanlar akademiyasining faoliyati takomillashtirildi.

2017-yilda O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi faoliyati yo'lga qo'yilgani innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etishni tashkil qilish sohasida muhim qadam bo'lib, ushbu yo'nalishda salmoqli ishlarni amalga oshirishga xizmat qildi. Xususan, vazirlikning bevosita ko'magi bilan 2018-2021-yillarda 342 ta ilmiy ishlanma tijoratlashtirildi. Natijada 151,2 milliard so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi, 128,7 milliard so'mlik mahsulotlar sotildi.

Umuman olganda, so'nggi yillarda ilm-fan va innovatsiyalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, 2018-2021-yillarda ilmiy-innovatsion faoliyat sohasida 2 ta qonun, Prezidentning 5 ta farmoni va 26 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 35 ta qarori va 7 ta farmoyishi qabul qilindi.²²

Keyingi paytlarda yurtimizda ta'lim sifatini yuksaltirish uchun rivojlangan davlatlar ta'lim tizimidan andoza olinmoqda. Bu jarayon albatta ko'r-ko'rona bo'lmasligi va bizning

²¹ N.Muslimov., J.Tolipova., "Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari" O'quv-uslubiy majmua. 2023.

²² <https://xabar.uz>



milliy qadriyatlarimizga mos kelishi talab etiladi. Shu o'rinda dunyodagi ba'zi rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimiga nazar tashlagan holda, yurtimizda joriy etilishi mumkin bo'lgan jihatlarini ko'rib chiqamiz.

Yaponiya maktablari. Yaponiya xalqi o'z aql-zakovati xushmuomalaligi va tartib-intizomi bilan mashhurdir. Shuning uchun bu millat o'ziga xos xislati bilan boshqa davlatlardan ajralib turadi. Buning sababi samarali ta'lim tizimi va bu davlatning o'ziga xos maktabiga ega ekanligidir. Yaponiya maktablarida o'quvchilar 4-sinfga qadar imtihon topshirmaydilar, ular kichik test va sinovlar topshiradilar. Maktabning dastlabki to'rt yilligining maqsadi bolaning bahosi yoki bilim olishi emas, balki bolaning yaxshi xulq-atvorini va ularning xarakterini rivojlantirish hisoblanadi. Bolalar boshqa odamlarni, hayvonlarni va tabiatni hurmat qilishga o'rgatiladi. Shuningdek, ular bag'rikeng, rahmshafqatli va mehribon bo'lib tarbiyalanadilar. Bir so'z bilan aytganda yaponiya maktablarida boshlang'ich 4 yil mobaynida bolalarga faqatgina haqiqiy inson nomiga loyiq bo'lish o'rgatiladi. Bolalarga ta'limdan avval tarbiya berish natijasida ularning ixtiyoriy tarzda ta'lim olishga intilishlarini ta'minlashga erishiladi. Ya'ni bola shunchaki ta'lim olishni o'qituvchi talab qilgani uchun emas, balki o'z xohishiga ko'ra va bilimli inson bo'lishning mohiyatini anglab yetkan holda o'qiydi va o'rganadi.

Shu o'rinda savol paydo bo'ladi, bunday tizimga bizning yurtimizda ham ehtiyoj bormi? Albatta, yurtimizdagi maktablarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga tarbiyadan avval ko'proq ta'lim beriladi. Bolalar esa shunchaki, o'qituvchining va tengdoshlarining yonida uyalib qolmaslik, yoki o'qituvchining tanbehlaridan qo'rqib dars tayyorlaydilar. Kimningdir bosimi ostida ta'lim olish bu shunchaki, teshik qopni narsa bilan to'ldirishdan boshqa narsa emas. Bolaga shunchalik chuqur tarbiya berish kerakki, u bilimni kimgadir ko'rsatish yoki kimdandir qo'rqganligi uchun emas, o'z xohishiga ko'ra qiziqqan holda olishi lozim.

Finlandiya maktablari. Dunyodagi ta'lim tizimi bo'yicha birinchi o'rinda bo'lgan Finlandiya ta'lim tizimi ham Yaponiya ta'lim tizimini takrorlaydi. Bu mamlakat o'qituvchilari imtihon faqat o'quvchilarni tabaqalashtiradi va ta'limning asosiy tushunchasi bo'lgan qiziquvchanlikni o'ldiradi deb hisoblaydilar. Shuning uchun Finlandiya maktablarida o'qituvchilar o'quvchilardan 6 yil mobaynida hech ham imtihon olmaydilar va ular bilan do'stona aloqa o'rnatadilar. Bu davlatda o'quvchilarning xohish-istaklari



hurmat qilinib, ular maktab hududida ham o'qituvchi oldida ham erkin va o'z fikrlarini aytishdan tortinmaydilar. Bu bilan ularning erkin fikrlay olishi, o'ziga bo'lgan ishonchini va o'z fikrlarini aytishda mustaqil bo'la olishi ta'minlanadi.

1	FINLANDIYA		87.8
2	KOREYA		86.7
3	CHEXIYA RESPUBLIKASI		84.4
4	VENGRIYA		84.1
5	YAPONIYA		83.9
6	YANGI ZELLANDIYA		83.3
7	SLOVENIYA		83.3
8	AVSTRALIYA		81.2
9	SHVETSIYA		80.6
10	ISLANDIYA		79.4

Ta'lim sifati bo'yicha davlatlar reytingi.

Koreya oliy ta'lim tizimi. Janubiy Koreya oliy ta'lim tizimi dunyoda eng yuqori sifatga ega bo'lgan ta'lim tizimi deb e'tirof etilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktab bitiruvchilarining 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi.²³

Koreya oliy ta'limida fanlar talabalar tanlovi asosida o'tiladi. Talabalar bir semestr davomida 6 ta fanni o'z qiziqishlariga ko'ra va o'zlari uchun kerakli deb hisoblagan fanlarini tanlab olishlari mumkin. Bu davlatda oliy ta'lim tizimining yana bir qulaylik tomonlaridan biri talabalar o'zlarining vaqtlariga ko'ra dars kunlarini belgilashlari mumkin. Ya'ni

²³ <https://amuziyo55.zn.uz>



talabalar o'z xohishlariga qarab dars kunlarini belgilab, qolgan vaqtlarda bemalol o'zlarini ish bilan ta'minlashlari mumkin.

Koreyaning oliy ta'lim tizimini dunyodagi eng yuqori saviyadagi ta'lim tizimi ekanligini hisobga olgan holda, yurtimizd ham ba'zi bir jihatlaridan andoza olinmoqda. Masalan, grant asosida o'qishga kirgan talabalar bir semestrni past natija bilan tugatsalar keyingi semestrda to'lov-kontrakt asosida o'qiydilar. Aksincha, to'lov-kontrakt asosida o'qiydigan talabalar esa yuqori natija ko'rsatsalar kelgusi semestr davomida grant asosida o'qishda davom etadilar. Bu sistema yurtimizda yangi joriy etilgan bo'lib, hali to'laqonli o'zini oqlagani yo'q.

Rivojlangan davlatlarning ta'lim tizimidan yurtimizda joriy etilishi zarur bo'lganlari talaygina. O'zbek xalqining o'zligini saqlab qolgan holda yetakchi davlatlarning ta'lim sohasidagi eng samarali jihatlarini ta'lim tizimiga joriy etish bugungi davr talabi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Ta'lim tizimining rivojlanishi albatta ko'p jihatdan yuksak darajada ta'lim bera oluvchi pedagog-kadrlarni tayyorlash bilan bog'liq bo'lib, bu borada yurtimizda bir qancha muammolar mavjud. Bu muammolarni bartaraf etish yurtimizning porloq kelajak uchun tashlashi zarur bo'lgan eng buyuk odim sanaladi. Chunki o'z faoliyatini har tomonlama mukammal yurita oladigan pedagog ta'lim olayotgan yoshlarga ham mukammal darajada bilim bera oladi. Nemis pedagogi va liberal siyosatchi Adolf Disterveg aytganidek: "Har qanday ta'lim va tarbiyada eng asosiy omil – muallim, uning tafakkur dunyosidir".

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ilm-fan har qanday davlatni va jamiyatni yuksaklikka yetaklovchi asosiy kuch hisoblanadi. Davlatning rivojlanishini ta'limning yuksalishi orqali baholash juda ham o'rinli. O'zbek xalqining buyuk pedagoglaridan biri Hamza Hakimzoda Niyoziy xalq maorifi to'g'risida fikrlar ekan, "ilm-ma'rifat shunday bir vositaki, uning yordamida butun ijtimoiy tuzumni yaxshi tomonga o'zgartish mumkin, lekin buning uchun ma'rifat ishlarida hammaning manfaatlarini birga qo'shish kerak", deb xulosa chiqargan.²⁴

Yurtimiz uchun ilm-fan taraqqiyoti farovonlik va barqarorlik yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Asosiy qomusimizd ham davlat jamiyatning ilmiy va texnikaviy rivojlanishiga g'amxo'rlik qilishi bejiz qayd etilmagan. Tarixdan bizga ma'lumki, o'zbek

²⁴ O.Hasanboyeva., J.Hasanboyev., H.Homidov "Pedagogika tarixi" Toshkent – 2024.



jamiyatida ilmga hurmat va ehtirom an'ana sifatida saqlanib kelgan. Buyuk bobokalonimiz, hadis ilmining sultoni Imom al-Buxoriy aytganlaridek, "dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay".

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". To'ldirilgan ikkinchi nashri.- Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2022. – 416 bet.
2. N.Muslimov., J.Tolipova., "Ta'lim sifatini ta'minlashda baholash metodikalari" O'quv-uslubiy majmua. 2023.
3. O.Hasanboyeva., J.Hasanboyev., H.Homidov "Pedagogika tarixi" Toshkent – 2024.

Internet resurslari:

1. <https://xabar.uz>.
2. <https://amuziyo55.zn.uz>.

